

“Yangi O‘zbekiston” universitetiga 2025/2026 o‘quv yili uchun talabalarni qabul qilish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 23-iyundagi PQ–5158-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-iyundagi 300-son qarori bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston” universitetining iqtidorli talabalariga davlat grantini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom “Yangi O‘zbekiston” universitetiga (keyingi o‘rinlarda – Universitet) 2025/2026 o‘quv yilining bakalavr bosqichiga kirish uchun hujjatlarni topshirish, ularni ko‘rib chiqish va qabul qilish, shuningdek hujjatlari qabul qilingan talabgorlar orasidan belgilangan tartibda iqtidorli yoshlarni saralab olish hamda o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

talabgor – Universitetning bakalavr bosqichiga kirish istagida bo‘lgan abituriyent;

Qabul komissiyasi – Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan tashkil etilgan, belgilangan vakolatlari doirasida talabgorlarning hujjatlarini topshirish va qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ular orasidan iqtidorli yoshlarni saralash va o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ;

Ishchi guruh – Qabul komissiyasi huzurida tashkil etilgan, belgilangan vakolatlari doirasida talabgorlarning hujjatlarini topshirish va qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ular orasidan iqtidorli yoshlarni saralash va o‘qishga qabul qilish jarayonlarini olib boruvchi guruh;

“Admission Portal” elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda – Elektron platforma) – Universitet tomonidan talabgorlarning hujjatlarini topshirish va qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ular orasidan iqtidorli yoshlarni saralash va o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tizimlashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan elektron platforma;

saralash imtihoni – talabgor bilimini adolatli, obyektiv va shaffof tarzda baholashga qaratilgan saralash imtihoni;

biriktirilgan mas’ul xodim – Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan saralash imtihonini o‘tkazish uchun mas’ul etib biriktirilgan Universitet xodimi;

kafolat to'lovi – saralash imtihonidan mavaffaqiyatli o'tgan va talabalikka tavsiya etilgan talabgor tomonidan uning Universitetda o'qish joyini band qilish uchun joriy etilgan to'lov;

shartli oferta – kafolat to'lovini to'lash uchun talabgorga Universitet tomonidan taqdim etiladigan to'lov hujjati;

Hamkor tashkilot – ta'lim sohasida, jumladan saralash imtihonlarini o'tkazish borasida xalqaro tajribaga ega, Universitet tomonidan belgilangan tartibda saralash imtihonini tashkil etish uchun jalb etilgan xorijiy tashkilot.

4. Hujjatlarni topshirish, ularni ko'rib chiqish va qabul qilish, saralash imtihonini tashkil etish hamda o'qishga qabul qilish ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, barcha jarayon teng huquqlilik, adolat va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etilishi shart.

5. Universitetga o'qishga qabul qilish belgilangan tartibda tasdiqlangan talabalarni qabul qilish parametrlari doirasida, saralash imtihoni natijalari asosida amalga oshiriladi.

6. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktablari (keyingi o'rinlarda – Prezident maktabi) bitiruvchilari “Cambridge International AS & A Level” sertifikatini asosida, saralash imtihonida ishtirok etmasdan to'g'ridan-to'g'ri o'qishga qabul qilinadi.

Bunda, Prezident maktabi bitiruvchisi “Cambridge International AS & A Level” sertifikatining elektron shakldagi imtihon natijalari hisobotida matematika fani bo'yicha “Cambridge International Education” tomonidan o'rnatilgan eng past “E” ko'rsatkichidan past ko'rsatkichga ega bo'lgan taqdirda o'qishga qabul qilinmaydi.

7. Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish bo'yicha har bir holat Qabul komissiyasi tomonidan alohida ko'rib chiqiladi hamda belgilangan talabalarni qabul qilish parametrlari doirasidan tashqarida qabul qilinadi.

8. Talabgor belgilangan tartibda tasdiqlangan talabalarni qabul qilish parametrlari bo'yicha faqat bitta ta'lim yo'nalishi uchun hujjatlarni topshirishi mumkin.

Talabgor 2025/2026 o'quv yili boshlanishining birinchi 2 (ikki) ish kuniga qadar ta'lim yo'nalishini o'zgartirish yuzasidan Elektron platforma orqali murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi. Bunda, o'zgartirish so'ralgan ta'lim yo'nalishida belgilangan tartibda tasdiqlangan talabalarni qabul qilish parametrlari doirasida qabul qilish imkoni mavjud bo'lishi lozim.

2-bob. Hujjatlarni topshirish, ularni ko'rib chiqish va qabul qilish

1-§. Hujjatlarni topshirish

9. Hujjatlarni topshirish 2025-yil 20-yanvardan boshlanib, 2025-yil 26-iyunda yakunlanadi.

Yakunlash muddati talabgorlar soni va murojaatidan kelib chiqib, Qabul komissiyasi tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

10. Talabgor hujjat topshirishda quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi lozim:

umumiy o'rta, o'rta maxsus yoki professional ta'lim muassasasini tamomlagan yoki tamomlash arafasida (oxirgi bosqichida ta'lim olayotgan) bo'lishi;

ingliz tilini kamida "Common European Framework of Reference" (CEFR) shkalasi bo'yicha "B2" darajada bilish.

11. Hujjatlarni topshirish onlayn tarzda Elektron platforma orqali amalga oshiriladi.

12. Talabgor hujjatlarni topshirishdan avval Elektron platformada saralash imtihoni shartlari hamda uning huquq va majburiyatlari bilan tanishganligi to'g'risidagi ommaviy ofertani tasdiqlashi lozim.

13. Talabgor hujjatlarni topshirishi uchun unga Elektron platformada shaxsiy kabinet ochiladi va talabgor o'zi to'g'risidagi so'ralgan ma'lumotlarni kiritadi.

14. Talabgor shaxsiy kabinetga quyidagi hujjatlarni elektron shaklini yuklashi lozim:

talabgorning 11 yillik umumiy o'rta, o'rta maxsus yoki professional ta'limni tamomlaganligi to'g'risidagi rasmiy hujjat;

oilasi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilganligini tasdiqlovchi hujjat (mavjud bo'lgan taqdirda);

Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO), Xalqaro fizika olimpiadasi (IPhO), Xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO), Xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO), Xalqaro informatika olimpiadasi (IOI) g'olibligini tasdiqlovchi sertifikat (mavjud bo'lgan taqdirda);

ushbu Nizomning 2-ilovasida qayd etilgan xalqaro sertifikat (keyingi o'rinlarda – Xalqaro sertifikat) (mavjud bo'lgan taqdirda);

ingliz tilini bilish darajasi "IELTS" 5,5 va undan yuqori ekanligini tasdiqlovchi sertifikat, Prezident maktablari bitiruvchilari bundan mustasno. Bunda, ushbu Nizomning 3-ilovasida qayd etilgan "IELTS" 5,5 va undan yuqori darajalarga tenglashtirilgan natijalarni tasdiqlovchi hujjat taqdim qilinishi mumkin.

Hujjatlar topshirish vaqtida ushbu bandda ko'rsatilgan hujjatlar mavjud bo'lmasdan turib, hujjat topshirilganidan so'ng qo'lga kiritilgan bo'lsa, ushbu hujjatni yuklashning oxirgi muddati 2025-yil 18-avgust hisoblanadi. Bunda, majburiy hisoblangan hujjat taqdim etilmagan taqdirda, talabgor o'qishga qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Elektron platformada talabgorning tegishli ma'lumotlari va surati integratsiya qilingan tizim orqali avtomatik ravishda yuklanadi. Agar tizimda avtomatik ravishda yuklanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar yoki surat texnik sabablarga ko'ra yuklanmay qolgan taqdirda, talabgor tomonidan qo'shimcha yuklanishi kerak.

Bunda, surat 3,5sm x 4,5sm hajmda, “PNG” / “GIF” / “JPEG” / “JPG” formatda, rangli, 5 MBdan oshmagan hajmda, oxirgi 3 oy ichida suratga olingan, neytral yuz ifodasi hamda ko‘zlar ochiq holda yelkalar ko‘ringan bo‘lishi lozim.

16. Hujjatlarni belgilangan muddatlarda, to‘g‘ri va sifatli topshirish bo‘yicha mas‘uliyat talabgor zimmasiga yuklatiladi.

2-§. Hujjatlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish

17. Topshirilgan hujjatlar Ishchi guruh tomonidan 3 (uch) ish kuni mobaynida ko‘rib chiqiladi.

18. Topshirilgan hujjatlarning haqiqiyliги mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tekshiriladi.

19. Topshirilgan hujjatlar Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilganidan so‘ng, talabgorga ko‘rib chiqish natijalari (hujjatlar qabul qilinganligi yoki rad etilganligi) to‘g‘risida uning shaxsiy kabinetiga xabar yuboriladi.

20. Topshirilgan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, talabgor ushbu kamchiliklarni xabar yuborilgan vaqtdan boshlab 2 (ikki) ish kuni mobaynida bartaraf etishi shart, aks xolda hujjatlar rad etiladi.

21. Topshirilgan hujjatlar rad etilganda, talabgorga hujjatlarni rad etish sabablari batafsil bayon etiladi.

22. Hujjatlarni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

talabgor belgilangan muddatlar yakunlanganidan so‘ng, saralash imtihonida ishtirok etish xohishini bildirgan taqdirda;

talabgorning xohishiga ko‘ra;

qalbaki va soxta hujjatlar topshirilganligi aniqlanganda;

topshirilgan hujjatlar belgilangan talab normalariga javob bermaganda, shu jumladan topshirilgan hujjatlardagi yozuvlar, muhrdagi yozuvlar sifatsiz holda nusxalangan taqdirda;

talabgor hujjatlar topshirish talablariga mos kelmaganda.

23. Talabgor hujjatlari qabul qilinganidan so‘ng, uning yozma va og‘zaki murojaati asosida bekor qilinishi mumkin.

3-bob. Saralash imtihonini tashkil etish va o‘tkazish

24. Saralash imtihoni 2025-yil 5-iyulda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda o‘tkaziladi, Toshkent viloyati Toshkent shahri bilan birgalikda o‘tkazilganligi bois, bundan mustasno.

Talabgorlar soni va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda joriy yil 24-iyunga qadar Qabul komissiyasi qaroriga asosan va Hamkor tashkilot bilan kelishgan holda saralash imtihoni sanasi o‘zgartirilishi mumkin. Bunda, sana o‘zgarishi to‘g‘risidagi axborot talabgorga uning shaxsiy kabineti orqali yetkaziladi.

25. Ishchi guruh hujjatlarni topshirish yakunlanganidan so‘ng 2025-yil

3-iyulga qadar hujjatlari qabul qilingan talabgorning saralash imtihonida ishtirok etish ruxsatnomasini uning shaxsiy kabinetiga joylashtiradi.

26. Saralash imtihonida ishtirok etish ruxsatnomasida saralash imtihoni o'tkaziladigan joyi, vaqti va boshqa ushbu jarayonga oid ma'lumotlar ko'rsatiladi.

27. Talabgor saralash imtihoni o'tkaziladigan manzilga belgilangan vaqtda saralash imtihonida ishtirok etish ruxsatnomasi va fuqarolik pasport yoki ID-karta bilan birga kelishi lozim.

28. Talabgor saralash imtihoniga biriktirilgan mas'ul xodim tomonidan "Face-ID" tizimi asosida tekshiruvdan o'tkazilgan holda kiritiladi.

29. Agar saralash imtihoni kuni talabgorning belgilangan hujjatlari mavjud bo'lmasa, lekin imtihonda ishtirok etishga ruxsat berilgan talabgorlar ro'yxatida talabgor qayd etilgan bo'lsa yoki "Face-ID" tizimi talabgorni aniqlamasa, biriktirilgan mas'ul xodim tomonidan alohida tekshiruv o'tkazish yo'li bilan ushbu talabgorga saralash imtihoniga kirish uchun ruxsat berilishi mumkin.

30. Saralash imtihoni Hamkor tashkilot bilan hamkorlikda matematika va mantiqiy fikrlash fanidan ingliz tilida tashkil etiladi.

31. Saralash imtihoniga taalluqli barcha materiallar (savollar varaqalari, javob varaqalari va boshqalar) maxfiy xarakterga ega ma'lumot hisoblanadi. Ularning maxfiyligi Hamkor tashkilot va Qabul komissiyasi tomonidan ta'minlanadi.

32. Saralash imtihoni test shaklida bo'lib, 40 ta topshiriqdan iborat bo'ladi. Bunda, saralash imtihoni savollari Universitet o'quv rejalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan talabgorlarni saralab olishga qaratilgan holda, Hamkor tashkilot tomonidan shakllantiriladi.

33. Talabgor saralash imtihoniga tayyorgarlik ko'rishi uchun Hamkor tashkilot tomonidan saralash imtihoni savollari bo'yicha batafsil ma'lumot taqdim etiladi.

34. Saralash imtihonida savollarga javob berish uchun 120 daqiqa vaqt ajratiladi.

35. Saralash imtihoni videokuzatuv va boshqa texnik vositalarni qo'llagan holda maxsus ajratilgan joylarda o'tkaziladi.

36. Saralash imtihoni javob varaqalari qora rangli qalamda belgilanadi.

37. Saralash imtihonida har bir talabgor 2 (ikki) dona qora rangli qalam, ichimlik suvi, savollar kitobi, javoblar varaqasi va Hamkor tashkilot tavsiyasi asosida qoralama uchun qo'shimcha varaqlar bilan ta'minlanadi.

38. Ishchi guruh saralash imtihoni bo'lib o'tadigan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kun avval Hamkor tashkilot tomonidan taqdim etilgan savollar kitoblari va javoblar varaqalarini saralash imtihoni bo'lib o'tadigan hududlar kesimida qopchalarga taqsimlanganini, xavfsizlik qoidalari asosida muhrlanganini tashkil etadi.

39. Biriktirilgan mas'ul xodim saralash imtihoni bo'lib o'tadigan sanadan

1 (bir) kun avval belgilangan tartibda muhrlangan qopchani qabul qilib olib, uni maxfiylik va daxlsizligini ta'minlagan holda belgilangan joyga olib keladi.

40. Saralash imtihoni boshlanishida biriktirilgan mas'ul xodim talabgorlar va saralash imtihoni bo'lib o'tadigan binoda nazoratchi bo'lgan shaxslar guvohligida qopchani ochadi.

41. Saralash imtihoni davomida talabgorlar va saralash imtihoni bo'lib o'tadigan binoda nazoratchi bo'lgan shaxslar tomonidan ushbu Nizomning 4-ilovasida qayd etilgan barcha turdagi materiallar va qurilmalardan foydalanish hamda harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

42. Saralash imtihonini tashkil etishga oid talablar buzilganda, biriktirilgan mas'ul xodim tomonidan tegishli tartibda dalolatnoma rasmiylashtirilgan holda talabgor yoki saralash imtihoni bo'lib o'tadigan binoda nazoratchi bo'lgan shaxsni majburiy ravishda saralash imtihonidan chetlatiladi.

43. Saralash imtihoni yakunlanganidan so'ng, biriktirilgan mas'ul xodim savollar kitoblari va javoblar varaqalarini saralash imtihoni bo'lib o'tadigan binoda nazoratchi bo'lgan shaxslar guvohligida xavfsizlik qoidalari asosida qopchaga muhrlaydi va 36 soat muddat mobaynida Ishchi guruhga uning maxfiylik va daxlsizligini ta'minlagan holda yetkazadi.

44. Ishchi guruh 3 (uch) ish kuni muddatda javoblar varaqalarini belgilangan tartibda Hamkor tashkilotga yuboradi.

45. Saralash imtihoni bo'lib o'tadigan binolar hamda ushbu Nizomda nazarda tutilmagan saralash imtihonining tashkiliy jarayonlari Qabul komissiyasi qarori bilan tartibga solinadi.

46. Xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabgor saralash imtihonidan ozod etiladi va unga sertifikatning tegishli fani bo'yicha berilgan balidan kelib chiqib, uning haqiqiylik tasdiqlanganidan so'ng ushbu Nizomning 2-ilovasiga asosan saralash imtihoni natijasi taqdim etiladi.

Bunda, ushbu talabgorga o'z xohishiga ko'ra saralash imtihonida ishtirok etish huquqi beriladi. Agar talabgor unga xalqaro sertifikat bo'yicha taqdim etilgan saralash imtihoni natijasi va u ishtirok etgan saralash imtihoni natijasi orasida farq yuzaga kelsa, yuqori natija inobatga olinadi.

4-bob. Saralash imtihoni natijalarini shakllantirish, e'lon qilish va o'qishga qabul qilish

47. Saralash imtihoni natijasi foiz ko'rsatkichida shakllantiriladi.

48. Saralash imtihoni natijalari Hamkor tashkilot tomonidan 2025-yil 31-iyulda e'lon qilinadi, Xalqaro sertifikat asosida saralash imtihoni natijasi taqdim etilgan talabgorning saralash imtihoni natijasi bundan mustasno.

49. Qabul komissiyasi tomonidan saralash imtihoni natijalari, shuningdek davlat grantiga talabgorlik qilishi mumkin bo'lgan talabgorlarning dastlabki ro'yxati saralash imtihoni e'lon qilingan kunda shakllantiriladi.

Bunda, davlat grantiga talabgorlik qilishi mumkin bo'lgan talabgorlarning dastlabki ro'yxatida ko'rsatilgan davlat granti miqdorlari talabgorlarning shaxsiy kabinetida aks ettiriladi.

50. Talabgor saralash imtihoni natijasiga ko'ra, kamida 50 foiz ko'rsatkichga ega bo'lgan taqdirda talabalikka tavsiya etilishi mumkin.

51. Saralash imtihoni natijalariga ko'ra, talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar soni belgilangan tartibda tasdiqlangan talabalarni qabul qilish parametrlari miqdoridan ko'p bo'lgan taqdirda, ular bitirgan maktabi toifasi va to'plagan balidan kelib chiqqan holda quyidagicha ajratiladi:

parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar;

parametrdan tashqari talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar.

Bunda, talabgorlar o'rtasida teng ballar to'planganda:

ushbu Nizomning 5-ilovasiga asosan ingliz tilini bilish darajasi yuqori talabgorga ustunlik beriladi;

agar talabgorlarning ingliz tilini bilish darajasi ham teng bo'lsa, hujjatlari qabul qilingan sanasi inobatga olinadi;

parametrdan tashqari talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar kutish rejimiga tushiriladi.

52. Ishchi guruh saralash imtihoni natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorga uning shaxsiy kabineti orqali shartli ofertani yuboradi, Prezident maktabi bitiruvchisi bundan mustasno.

53. Agar talabgorga uning Xalqaro sertifikatida asosida saralash imtihoni natijasi taqdim etilgan bo'lsa, unga quyidagilarni nazarda tutgan holda belgilangan muddatdan oldin shartli oferta yuborilishiga yo'l qo'yiladi:

100 foizlik saralash imtihoni natijasi taqdim etilganda – qonunchilikda belgilangan tartibda davlat grantini berish orqali o'qishga qabul qilish;

100 foiz ko'rsatkichdan past bo'lgan saralash imtihoni natijasi taqdim etilganda – to'liq to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish. Bunda, saralash imtihoni yakunlanib, barcha talabgorlarning ko'rsatkichi shakllantirilganidan so'ng, shartli oferta qonunchilikda belgilangan tartibda davlat grantini berish orqali o'qishga qabul qilishga o'zgartirilishi mumkin.

54. Prezident maktabi bitiruvchisi hisoblangan talabgorga tasdiqlov hujjati uning shaxsiy kabineti orqali belgilangan tartibda uning hujjatlari qabul qilinganidan so'ng 3 (uch) ish kuni mobaynida yuboriladi.

55. Tasdiqlov hujjati joriy yil 15-iyulga qadar imzolanib, skaner qilingan nusxasi shaxsiy kabinetga yuklanishi lozim.

56. Shartli oferta yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida Universitet hisob raqamiga 4 (to'rt) million so'm miqdorida kafolat to'lovi to'lanishi

lozim. Mazkur miqdor talabgorlarning soni va murojaatidan kelib chiqib, Qabul komissiyasi qarori asosida o'zgartirilishi mumkin.

57. Kafolat to'lovi quyidagi holatlarda va muddatlarda qaytariladi:

talabgorga belgilangan tartibda 100 foizlik davlat granti taqdim etilganda – o'quv yili boshlanganidan so'ng 2 (ikki) oy muddatda, bunda ushbu davrda talaba o'qishdan chetlashtirilgan holat mustasno;

talabgor unga joriy o'quv yili uchun belgilangan kontrakt-to'lov miqdorini ta'lim krediti asosida to'liq to'laganda. Bunda, talabgor Universitetga kafolat to'lovini qaytarib berish bo'yicha murojaat yo'llashi lozim – kontrakt-to'lovi miqdori Universitet hisob raqamiga to'liq to'langan va talabgorning kafolat to'lovini qaytarib berish bo'yicha murojaati kelib tushganidan so'ng 10 (o'n) ish kuni muddatda;

kafolat to'lovi amalga oshirilganidan so'ng 3 (uch) ish kuni mobaynida talabgor tomonidan kafolat to'lovini qaytarib berish bo'yicha murojaat yo'llanganda – kafolat to'lovini qaytarib berish bo'yicha murojaati kelib tushganidan so'ng 10 (o'n) ish kuni muddatda.

58. Kafolat to'lovi talabgorga u tomonidan ko'rsatilgan plastik kartaga qaytarib beriladi.

59. Talabgor kafolat to'lovini qaytarib berish bo'yicha murojaatni "admission@newuu.uz" elektron manziliga yuborishi va unda quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim:

a) talabgorning F.I.Sh.;

b) qaytarib berilishi lozim bo'lgan plastik kartochka bilan bog'liq quyidagi ma'lumotlar:

bank nomi;

bank tranzit hisob raqami; bank MFO;

bank STIR;

plastik kartochka hisob raqami.

Mazkur murojaatga qaytarib berilishi lozim bo'lgan plastik kartochka egasining pasport yoki ID-karta nusxasi ilova qilinishi lozim.

60. Mazkur Nizomning 57-bandida nazarda tutilgan hollardan tashqari qolgan barcha holatlarda to'langan kafolat to'lovi qaytarilmaydi.

61. Parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgor belgilangan tartibda tasdiqlov hujjatini imzolamagan, kafolat to'lovini amalga oshirmagan yoki o'z xohishiga ko'ra Universitetda o'qishni rad etgan taqdirda, ushbu talabgor parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxatidan chiqarilib, uning o'rniga keyingi o'rinda turgan talabgor qo'yiladi va shu tariqa kutish rejimidagi talabgor parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxatiga kiritiladi.

62. Ishchi guruh muntazam ravishda parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxatini yangilab boradi hamda kutish rejimidan parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxatiga kiritilgan talabgorga o'sha kunning o'zida unga uning shaxsiy kabinetiga shartli ofertani yuboradi.

Bunda, ushbu talabgorga kafolat to'lovini to'lash uchun shartli oferta yuborilgan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kun muddat beriladi.

63. Parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgor belgilangan tartibda tasdiqlov hujjatini imzolamagan, kafolat to'lovini amalga oshirmagan yoki o'z xohishiga ko'ra Universitetda o'qishni rad etganidan so'ng, qayta parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlar ro'yxatiga kiritish yuzasidan murojaat qilsa:

80 foizdan past ko'rsatkichga ega bo'lgan talabgor kutish rejimidagi talabgorlar ro'yxatining oxirgi o'rniga;

Prezident maktablari hisoblangan yoki 80 foizdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan talabgor kutish rejimidagi talabgorlar ro'yxatining eng yuqori o'riniga joylashtiriladi.

64. Ishchi guruh 2025/2026 o'quv yili boshlanishining birinchi 5 (besh) ish kuniga qadar parametr doirasida talabalikka tavsiya etilgan talabgorlarning yakuniy ro'yxatini shakllantiradi.

5-bob. Apellatsiya shikoyati

65. Talabgor saralash imtihoni natijalari yuzasidan saralash imtihoni natijalari e'lon qilingandan so'ng 3 (uch) ish kuni muddat ichida Qabul komissiyaga o'zining shaxsiy kabineti orqali appellatsiya shikoyatini (ariza) yuborishi mumkin. Ushbu muddat Qabul komissiyasi tegishli qarori bilan o'zgartirilishiga yo'l qo'yiladi.

66. Apellatsiya shikoyati Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi, 5 (besh) ish kuni ichida ko'rib chiqilib, tegishli qaror bilan rasmiylashtiriladi va o'sha kunning o'zida talabgorga uning shaxsiy kabineti orqali xabar beriladi.

67. Talabgorning shikoyati (arizasi) qanoatlantirilgan taqdirda, saralash imtihoni natijalari qayta ko'rib chiqiladi va unga o'zgartishlar kiritiladi. Qabul komissiyasining ushbu qarori yakuniy hisoblanadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

68. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet rektorining tegishli buyrug'i asosida kiritiladi, ushbu Nizomda belgilangan holatlar bundan mustasno.

69. Mazkur Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

70. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.